

RESPIRATOR YO'L BILAN YUQADIGAN YUQUMLI KASALLIKLAR, ULARNING TARQALISHI VA PROFILAKTIKASI (QIZAMIQ MISOLIDA)

¹Po'latov Jo'rabek Xudoyberdi o'g'li

1. Kimyo international university in Tashkent (KIUT)

2-bosqich talabasi

pjurabek450@gmail.com

²Abdualiyev Muzaffar Murodjon o'g'li

Kimyo international university in Tashkent (KIUT)

2-bosqich talabasi

Muzaffarabdualiyev9@gmail.com

³Ahatova Guljahon Hakimovna

3. Kimyo international university in Tashkent (KIUT)

«Tibbiy-biologik fanlar» kafedrasida katta o'qituvchisi

g.ahatova@kiut.uz

Mavzuning dolzarbligi: Havotomchi yo'li bilan yuqadigan infeksiyalar bugungi kunda jahon sog'liqni saqlash tizimida muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu kasalliklar yuqori yuqumliligi, tez tarqalishi va og'ir asoratlar keltirib chiqarishi bilan xavflidir. Qizamiq eng yuqumli virusli kasalliklardan biri bo'lib, asosan bolalar orasida keng tarqaladi. Immuniteti past shaxslarda kasallik og'ir kechadi va o'lim bilan yakunlanishi ham mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, vaksina bilan qamrab olish darajasining pasayishi qizamiq bilan kasallanish holatlarining ortishiga sabab bo'lmoqda. Sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik ham kasallik tarqalishiga ijobiy sharoit yaratadi.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu ilmiy ishning asosiy maqsadi — qizamiq kasalligining kelib chiqish sabablari, tarqalish mexanizmi, klinik belgilari, tashxislash, davolash hamda oldini olish choralarini o'rganish va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot material va usullari: Tadqiqot jarayonida JSST, CDC, PubMed, Elsevier, Scopus kabi xalqaro ilmiy bazalardagi maqolalar, statistik ma'lumotlar va zamonaviy adabiyotlar tahlil qilindi. 2022–2025-yillarda mahalliy tibbiyot muassasalarida kuzatilgan bemorlar holatlari o'rganildi. Klinik, laborator va epidemiologik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Havotomchi yo'li bilan yuqadigan infeksiyalar yo'tal, aksirish va gapirish vaqtida ajraladigan mayda tomchilar orqali tarqaladi. Ular asosan nafas yo'llarini zararlab, qisqa vaqt ichida keng hududga tarqalishi mumkin. Etiologiyasi qizamiq kasalligining qo'zg'atuvchisi — Measles virus bo'lib, Paramyxoviridae oilasiga mansub. Virus tashqi muhitga nisbatan chidamsiz

bo'lib, asosan to'g'ridan-to'g'ri havo-tomchi yo'li bilan yuqadi. Virus nafas yo'llari shilliq qavati orqali organizmga kirib, qon orqali butun tanaga tarqaladi va immun tizimni zaiflashtiradi. Epidemiologiyasi qizamiq ko'proq bolalarda uchraydi. Kasallik yilning qish va bahor fasllarida ko'payadi. Aholining vaksinalanmagan qismi orasida epidemiyalar tez-tez kuzatiladi. Vaksinatsiya qilinmagan shaxslarda kasallik og'ir kechib, asoratlari ko'p uchraydi. Inkubatsion davri qizamiqning inkubatsion davri o'rtacha 7 kundan 14 kungacha davom etadi. Ushbu davrda kasallik belgilari aniq namoyon bo'lmaydi, ammo bemor yuqumli hisoblanadi. Qizamiq quyidagi belgilar bilan namoyon bo'ladi: tana haroratining ko'tarilishi, umumiy holsizlik va charchoq, yo'tal va burun oqishi, ko'zlarning qizarishi (konyunktivit), og'iz shilliq qavatida terida qizil rangli toshmalar, ishtahaning pasayishi. Qizamiq quyidagi asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin: pnevmoniya, bronxit, otit, ensefalit, nafas yetishmovchiligi, immunitetning pasayishi. Og'ir hollarda kasallik nogironlik yoki o'lim bilan yakunlanishi mumkin.

Kasallikni aniqlashda quyidagi usullar qo'llaniladi: klinik ko'rik, epidemiologik anamnez, serologik tekshiruv, PSR diagnostika, umumiy qon tahlili, rentgen tekshiruvi. Davolash: Qizamiqni davolash asosan simptomatik va kompleks tarzda olib boriladi. Isitmani tushiruvchi preparatlar virusga qarshi vositalar A vitamini suyuqlik iste'molini oshirish yotoq rejimi, parhez, toza havo muhitini ta'minlash. Og'ir hollarda statsionar sharoitda davolash talab etiladi. Kasallikning oldini olish. Qizamiqning oldini olishda quyidagi choralar muhim hisoblanadi: MMR vaksina bilan emlash shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish. Xonalarni muntazam shamollatish, bemorlarni izolyatsiya qilish, aholini tibbiy savodxonligini oshirish.

Olingan natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, vaksina bilan qamrab olish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda qizamiq kam uchraydi. Vaksinatsiya qilinmagan bolalarda kasallikning og'ir shakllari va asoratlari ko'proq kuzatilgan. Erta tashxis va to'g'ri parvarish davolash samaradorligini oshiradi.

Xulosa: Qizamiq havo-tomchi yo'li bilan yuqadigan xavfli virusli kasallik bo'lib, jamiyat salomatligi uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Kasallikni erta aniqlash, samarali davolash, vaksinalardan to'liq foydalanish hamda sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilish orqali uning oldini olish mumkin. Aholining tibbiy savodxonligini oshirish va profilaktik choralarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.